

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION
TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI**

Muratova Nafisa Baratovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni axborot kompetensiyasini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Абстрактный

В данной статье освещается роль и значение информационно-коммуникационных технологий в развитии информационной компетентности будущих учителей.

Abstract

This article highlights the role and importance of information and communication technologies in the development of information competence of future teachers.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, axborot, kompetensiya, texnologiya, axborotlashtirish, innovatsion, faoliyat, o‘qitish uslublari.

Ключевые слова: учитель, информация, компетентность, технология, информация, инновационная деятельность, методы обучения.

Key words: teacher, information, competence, technology, information, innovative activity, teaching methods.

Jahon axborot jamiyatida mustaqil tarzda yangi bilimlarni egallash bosh qadriyatga aylanmoqda. Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish jarayoni zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalarni takomillashtirish bilan xarakterlanadi.

O‘rganilayotgan muammo yuzasidan Respublikamizda ham ko‘plab Prezident va hukumat qarorlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909 "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775 "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori, 2020 yil 27

fevraldagi PQ-4623 "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida belgilangan masalalar bu muammoning yanada dolzarbligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi jahon iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, hayotning barcha jabhalarida innovatsion usullar bilan bog'liq bo'lgan yuksak salohiyatli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Axborotlarni globallashtirish sharoitida Respublikamiz AKT sohasidagi eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida tan olingan.

Bizga ma'lumki, barcha rivojlangan davlatlar qatori O'zbekistonda ham AKT dan turli yo'nalishlarda keng foydalanilib kelinmoqda. Jumladan, ta'lim sohasida ham AKT dan foydalanib, zamonaviy o'qitish usullariga innovatsion yondashuv ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir o'tkazayotgani sir emas.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish – innovatsiyali pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsiyali pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. F.N.Gonobolin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsiyali faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtayi nazardan yoritilgan.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion faoliyat mazmuni qo'yidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiriq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi. [12.59-bet]

Ta'lim sohasida AKT dan foydalanishning o'ziy oq ta'lim sohasiga innovatsion yondashuvning eng katta qadamlaridan biri bo'lib, aynan AKT ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning yangilikka bo'lgan intilishlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'limda innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirishda AKT dan keng foydalanish, uni amalda hayotga tadbiriq etish va natijasini tahlil etish kabi vazifalar bir so'z bilan aytganda yangi o'zgarish, g'oyalar va konsepsiyalarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

AKT sohasida yaratilayotgan har bir yangilik va kashfiyotni innovatsiya sifatida ta'limga olib kirish va undan ta'lim sohasida keng foydalanish zamon talabiga aylanayotgan bu davrda, ta'lim oluvchining ushbu innovatsion texnologiyalarga bo'lgan munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i, ya'ni undan to'g'ri va samarali foydalanish, yakunida uning natijasi qanday bo'lishi bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

Bugungi kunda ta'limda o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rolli o'yinlar, mavzuli o'qitish va h.k. Ammo ularni ta'lim tizimida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko'p vaqtni sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Aynan mana shu kamchiliklarni bartaraf etish va ta'lim sifatini oshirishda AKT dan kengroq foydalanish, innovatsion ta'limiy islohatlarning o'ziga xos jihati, o'quvchi - talabalarning mustaqilligi, ularni belgilangan maqsad sari yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish o'rniga AKT dan foydalanishni samarali tashkil etish orqali o'quvchi - talabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, ularning imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning yo'llarini o'zlashtirishdan iborat.

Ta'lim sohasida AKT dan foydalanib innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda qo'yidagi tavsiyalarni beramiz:

- Ta'lim oluvchilarning AKT ga bo'lgan munosabat va qiziqishlarini inobatga olish;
- Ta'lim oluvchilarga yangi bilimlarni yetkazib berishda AKT dan qay tarzda va qanday usulda foydalanish borasida tajriba darslari o'tkazish va uning natijalarini tahlil qilish;
- AKT dan foydalanib innovatsion loyihalarni bosqichma-bosqich (sinf, guruhlarda) amalga oshirish;
- Ta'lim oluvchilarga yangi bilimlarni AKT dan foydalangan holda uch tomonlama yetkazib berish (ko'rish, eshitish, amalda qo'llash);
- AKT dan foydalanib yangi bilimlarni qisqa vaqtda va tushunarli tarzda yetkazib berish;

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ta'limda sifat va samaradorlik koefitsientini oshirish borasida yuqoridagi tavsiyalar va ularning ijrosi orqali ta'lim oluvchilarga AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda zamonaviy bilim berish va uni amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor berilishi ta'lim sifatining ijobiy o'zgarishiga o'z hissasini qo'shibgina qolmasdan balki, ta'lim jarayonini modernizatsiyalashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” yangi tahrirdagi Qonuni. // Xalq so‘zi. 2021, 24-sentabr. № 128
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son [Qarori](#) “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.02.2021 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Toshkent sh., 2021-yil 26-avgust, PQ-5234-son. //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2021-yil 10-fevral, PQ-4986-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari” to‘g‘risida //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.02.2021 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PQ-3549-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y.
6. Qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. 2017 yil 14 yanvar.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Sh.Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Toshkent oqshomi gazetasi. 2016 yil 19 oktyabr
9. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 30-son, 351-modda.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni

takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida Toshkent sh., 2020-yil 31-dekabr, 824-son

11. Vazirlar Mahkamasining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 2021-yil 18-maydagi 288 -son qarori
12. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” H. T. Omonov, M. B. Xattabov Toshkent 2016
13. “Pedagogic texnologiyalar va pedagogik mahorat” N.N. Azizxo‘jayeva Toshkent 2006
14. “Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar” O.A. Ismoilov, Q.Sh. Nazarov 2006 y.